



**KICHIK BIZNES
VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING
BUGUNGI KUNDAGI
DOLZARBLIGI**



**ALIKULOV AZIZBEK
ERNAZAROVICH**

Oliy maktab magistranti
alikulovaziz@mail.ru

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp47-48>

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning, ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi o'rnini muhokama qilinadi. Korxonadan oldingi talqinlarni umumlashtirishga asoslanib, iqtisod bilan bir qatorda, uning ijtimoiy tarkibi, ayniqsa rivojlanayotgan bozorlarga ega mamlakatlar uchun ham ahamiyatli ekanligi ko'rsatilgan. Ayniqsa, kichik tadbirkorlik rivojlanishida, iqtisodiy o'sish va siyosiy barqarorlikka chiqishida bajaraladigan funksiyalar va ommaviy innovatsiyalarning o'ta muhimligi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: tadbirkor, kichik tadbirkorlik, kichik biznes, ommaviy innovatsiya.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bugungi kunda, ahamiyati va zaruriyati o'ta muhim omillardan biridir. Olib borilgan izlanishlar asosida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyot taraqqiyotidagi o'rnini, uning ahamiyati va zaruriyati O'zbekiston iqtisodi rivojlanishining asosini tashkil etishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikrivojlanishining amaliy jihatlari, mamlakatda shu sohaga tegishli huquqiy asoslar, muammolar va ularni hal etish choralari to'g'risida fikr-mulohazalar tahlili olib borilganda, bu hodisa va tushuncha bir qarashda juda oddiy, hammaga ravshandek tuyuladi. Haqiqatan esa, u juda murakkab, ko'pqirrali, fundamental ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Tadbirkorlik ideologi hisoblangan Y.Shumpeter: tadbirkorlikni barcha turdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga xos hodisa bo'lib, ularning nafaqat tarkibiy qismi, balki iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch, deb ta'kidlab o'tgan. Tadbirkorlik O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy ta'sirini yumshatish va oqibatlarini bartaraf etishda shunday kuch ekanligini namoyon etmoqda va yetakchi sohaga aylanmoqda. Lekin haligacha tadbirkorlikning barcha qirralari va funksional xossalari yetarli darajada o'rganilmagan va natijada uning imkoniyatlari to'liq safarbar etilmagan. Demak, tadbirkorliklar va iqtisodchilar oldida ulkan vazifalar turibdi. Bunday vazifalarni umumlashtirgan holda quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Nazariya sohasida: tadbirkorlik hodisasini kengroq va chuqurroq tadqiq qilish, uning fundamental funksional xossalarini aniqlab, yaxlit nazariy modelini shakllantirish. Uslubiyot sohasida: hozirda shakllangan va qo'llab kelinayotgan nazariy-amaliy tadqiqotlar uslubiyotini yangi va mavjud samarali usullar, yondashuvlar bilan boyitish va jiddiy takomillashtirish;

2. Amaliyot sohasida: yangi nazariy-uslubiy yondashuvlar bilan boyitilgan muammolarining samarali yechimlarini tavsiya etish;

3. Ma'rifiy sohada: talabalar, o'quvchilar, tadbirkorlar, mutaxassislarining tadbirkorlik faoliyatini yuksak madaniy darajada tashkil etish va amalga oshirishni ta'minlaydigan bilimlar, ko'nikmalar, dunyoqarash bilan qurollantirish;

4. Targ'ibot sohasida: tadbirkorlikning insoniyat va jamiyat uchun ahamiyati va roli, jamiyatdagi yutuqlari va istiqbollari, ilg'or tajribasini ilmiy-amaliy targ'ib qilish.

Shundan kelib chiqqan holda ushbu ishning vazifasi quyidagilarda aniqlanadi: tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va roli, belgilari va tamoyillari, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, insoniy, boshqarish, marketing, tahliliy asoslari to'g'risida bilimlar tizimini shakllantirish; O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosati, amaliyoti, muammolari va istiqbollari to'g'risida tasavvur hosil qilish; tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Tadbirkorlik shu paytgacha ishlatilmay kelgan aholi jamg'armalari, mahalliy resurslar, ishlab chiqarish va maishiy chiqindilar, xorijiy investitsiyalarni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonga faol jalb etib, ishlab chiqarishni kengaytirish, milliy mahsulot va boylikni ko'paytirishga olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Bekmuradov, B.Goipnazarov, M.Amanov, M.Toshxudjayev. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 1-qism. Makroiqtisobiyot va iqtisodiy isloxatlar, savdo va investitsiyalar oqimlari. T.: TDIU, 2005y.

2. A.Bekmuradov, R.Toirov, E.Maxmudov, M.Isakov, J.Turayev. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 5-qism. Tashqi iqtisodiy siyosat: savdo va investitsiyalar oqimlari. T: TDIU, 2005.

3.G'ozibekov D.Yo.Invetsitsiyalarni moliyalashtirish masalari. T: "Moliya", 2003.

4.Shodibekov D.I., Shodibekova D.A.Moliyaviy menejment Magistratura talabalar uchun o'quv qo'llanma./ Toshkent.:TDIU, 2006y.

5. Рикардо Д. Начала политической экономии и податного обложения М., 2020.

6. KICHIK biznesning ahamiyati, 4-ma'ruza, L.X.Gaffarov, Mavzuni o'qitishdagi interfaol ta'lim metodlari va ilg'or xoriji.

7. <http://www.spc.gov.uz/ru/esupport/mdex3.html>

8. <http://www.spc.gov.uz/ru/spmanagement/gppredp.html>